Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoirabonu Abduvohobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyor Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	



QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING XORIJIY MEZONLARI

Jurayev Abdug'affor Sofarovich

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
E-mail: abdugafforjuraev68@gmail.com
[orcid: 0009-0006-5688-7044](https://orcid.org/0009-0006-5688-7044)

Nazirova Sayyora Baxtiyorovna

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti
Tayanch doktorant
E-mail: nazirovasayyora51@gmail.com
[orcid: 0009-0007-5736-8673](https://orcid.org/0009-0007-5736-8673)

Annotatsiya: Sir emaski, qishloq xo'jaligiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish – mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq joylarining ravnaqi uchun muhim omildir. Xorijiy investorlar esa qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda bir qator mezonlarga e'tibor qaratadilar. Ushbu mezonlar mamlakatdagi investitsion muhitning jozibadorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi daromad keltiruvchi tarmoq bo'lishi, investitsion xavflarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir qiluvchi asosiy mezonlar chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, sarmoya, kapital oqimi, infratuzilma, iqlim, samaradorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, siyosiy barqarorlik, investitsion mezonlar.

Abstract: It is widely recognized that attracting foreign investment in agriculture is essential for a country's economic growth, food security, and rural development. Foreign investors consider several criteria when deciding to invest in the agricultural sector, and these factors directly influence the attractiveness of a country's investment climate. Successful examples of foreign investment demonstrate that agriculture can be a profitable sector, reduce investment risks, and contribute to sustainable development. This article provides a comprehensive analysis of the key foreign criteria for attracting investment in agriculture.

Key words: agriculture, investment, capital flow, infrastructure, climate, efficiency, food security, political stability, investment criteria.

Аннотация: Не является секретом, что привлечение иностранных инвестиций в сельское хозяйство имеет важное значение для экономического роста страны, обеспечения продовольственной безопасности и развития сельских территорий. Иностранные инвесторы при принятии решения об инвестициях в сельское хозяйство ориентируются на ряд ключевых критериев, которые напрямую влияют на привлекательность инвестиционного климата. Успешный опыт зарубежных инвестиций демонстрирует, что сельское хозяйство может быть прибыльной отраслью, снижать инвестиционные риски и способствовать устойчивому развитию. В статье подробно рассматриваются иностранные критерии привлечения инвестиций в сельское хозяйство.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инвестиции, движение капитала, инфраструктура, климат, эффективность, продовольственная безопасность, политическая стабильность, инвестиционные критерии.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining bandligini oshirish va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy zamin yaratadi. Bugungi kunda global miqyosda qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalar va texnologik yangilanishlar tez sur'atlarda amalga oshmoqda. Bu esa soha samaradorligini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini bermoqda.



Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun sezilarli moliyaviy resurslar talab etiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu masala dolzarb hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani yaxshilash va bozor infratuzilmasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatlar investitsion siyosatini shakllantirishda xorijiy investorlar uchun jozibador sharoit yaratishga intilmoqda. Bu nafaqat moliyaviy oqimlarni jalb etishga, balki innovatsiyalar sonining ko'payishiga va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

Biroq xorijiy sarmoyalarni jalb qilish jarayonida investorlarning qaroriga ta'sir etuvchi mezonlar va shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Bunday mezonlar qatoriga mamlakatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy infratuzilmasi, huquqiy va moliyaviy muhiti, iqlim sharoitlari, bozor salohiyati hamda investitsiya xavflarining darajasi kiradi. Xorijiy investorlar aynan ana shu mezonlarga tayanib, qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qiladilar.

Shu sababli, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etishda xorijiy mezonlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish nafaqat investitsion jarayonni samarali tashkil etish, balki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada xorijiy investorlarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy mezonlar, ularning investitsiya qarorlaridagi o'rni va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri keng ko'lamda ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari turli mamlakatlar iqtisodiyoti va agrar siyosatida keng tadqiq etilgan. Bu borada bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, Mishkin va Shapiro (AQSh) o'z izlanishlarida investitsiya qarorlarida siyosiy barqarorlik hamda qonuniy muhitning o'rniga alohida e'tibor qaratadilar. Ular xorijiy investorlar uchun barqaror siyosiy sharoit va huquqiy tizim mavjudligi muhim mezon ekanini ta'kidlaydilar [1].

Todaro va Smith (AQSh) esa rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, xususan, transport va suv ta'minoti tizimlarining qishloq xo'jaligiga sarmoya jalb qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadilar [2].

Khan va hamkorlari (Pokiston) iqlim o'zgarishlari xavfini baholagan holda, investitsiya xavfsizligini ta'minlashda ekologik siyosat muhimligini asoslab beradilar [3].

Jenkins va Thomas (Buyuk Britaniya) iqtisodiy samaradorlik hamda innovatsiyalar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omillar sifatida maydonga chiqayotganini ta'kidlaydilar [4].

Xudoyberganov va Hamroqulov (O'zbekiston) mahalliy sharoitlarda huquqiy islohotlar o'tkazish va investitsion muhitni yaxshilash zaruratini tahliliy jihatdan ko'rib chiqqanlar [5].

Jahon banki (xalqaro tashkilot) esa qishloq xo'jaligi sohasida barqaror sarmoya muhitini yaratish bo'yicha qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'unlashtirilgan. Tadqiqot jarayonida asosan quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Adabiyotlarni tahlil qilish (literature review): Mavzu bo'yicha ilmiy maqolalar, iqtisodiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT, FAO) nashrlari va mamlakatlararo solishtirma tadqiqotlar o'rganildi. Ushbu yondashuv xorijiy investorlarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy mezonlarni aniqlash hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash imkonini berdi.

2. Sifatli tadqiqot (qualitative research): Mutaxassislar va soha vakillari bilan intervyular o'tkazilib, ekspert baholari yig'ildi. Bu orqali investitsiya muhitining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jihatlari, shuningdek, investorlarning qaror qabul qilish omillari haqida chuqur ma'lumotlar to'plandi.

3. Miqdoriy tadqiqot (quantitative research): Statistik ma'lumotlar va investitsiya oqimlari asosida tahlillar amalga oshirildi. Ushbu yondashuv mezonlar samaradorligini raqamli ko'rsatkichlar bilan asoslash imkonini berdi.

4. Taqqoslash (komparativ tahlil): Turli mamlakatlarning qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilish siyosati va amaliy tajribalari solishtirildi. Bu esa xorijiy mezonlarning universal va mamlakatga xos jihatlari aniqlashga yordam berdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish mezonlarini tizimli va kompleks tarzda o'rganishga imkon yaratadi hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar — bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish va iqtisodiy samaraga erishish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotining tadbirkorlik va boshqa faoliyat tarmoqlariga yo'naltiriladigan mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar majmuasidir. Qishloq xo'jaligiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish esa mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim imkoniyatlardan biridir.

2020–2024-yillar davomida dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar sezilarli darajada o'sdi. 2020-yilda global miqyosda qishloq xo'jaligiga ajratilgan investitsiyalar hajmi taxminan 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich izchil o'sib borib, 2024-yilga kelib 1,5 trillion dollarga yaqinlashishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sishning asosiy omillari sifatida texnologiyalarni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash hamda barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlariga o'tish keltiriladi.

Eng katta investitsiyalar Xitoy hissasiga to'g'ri kelmoqda — bu ko'rsatkich 2020-yilda 48 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 56 milliard dollarga yetgan. AQSh ham 43 milliard dollardan boshlab izchil o'sish sur'atini namoyon etib, 2024-yilga kelib 47 milliard dollarga yetdi. Hindistonda esa investitsiya hajmi 2020-yilda 18 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 22 milliard dollargacha oshgan.

Braziliya va Rossiya kabi davlatlar ham qishloq xo'jaligi sohasidagi investitsiyalar hajmini muntazam oshirib bormoqda. O'zbekistonda esa 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 % ga o'sib, 115 milliard dollarga yetgan. Xorijiy investitsiyalar hajmi 1,6 barobarga o'sib, 34,9 milliard dollarni tashkil etdi. Shuningdek, umumiy qiymati 10 milliard dollarga teng bo'lgan 242 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushirildi. Eksport hajmi esa ilk bor 27 milliard dollarga yetdi.

Investitsiyalar asosan to'rtta asosiy yo'nalishda amalga oshirildi:

Texnologik yangiliklar — sun'iy intellekt, dronlar va IoT qurilmalariga taxminan 30 % sarmoya yo'naltirildi.

Sug'orish tizimlari va transport infratuzilmasini rivojlantirish — jami investitsiyalarning 40 %.

Organik va barqaror qishloq xo'jaligi — bu yo'nalish investitsiyalarning 20 % ini tashkil etdi.

Kichik va o'rta fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash — 10 %.

Mintaqaviy nuqtai nazardan, Osiyo, ayniqsa Xitoy va Hindiston, investitsiya hajmi bo'yicha yetakchi o'rinda turibdi. Shimoliy Amerikada (AQSh) ilg'or texnologiyalar va ekologik yechimlarga sarmoya yo'naltirilmoqda. Janubiy Amerikada, xususan Braziliyada, yer resurslarini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Yevropa va MDH davlatlari esa ekologik barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga e'tibor qaratmoqda.

Natijada, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki barqaror rivojlanish va texnologik yangiliklarni keng joriy etishga ham katta hissa qo'shmoqda. Bugungi kunda barcha mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida mavjud mezonlarga tayangan holda, mavjud muammolarni bartaraf qilish va tizimli islohotlarni amalga oshirishga intilmoqda.

Xorijiy investorlar qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya kiritishda quyidagi mezonlarga alohida e'tibor qaratadilar:

Siyosiy barqarorlik. Investitsiyalar odatda uzoq muddatli bo'lgani sababli, mamlakatdagi siyosiy muhitning barqarorligi katta ahamiyat kasb etadi. Siyosiy noaniqliklar investorlarni xavotirga soladi va ularning qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy baza. Qishloq xo'jaligiga oid qonunchilikning aniqligi, shaffofligi va soddaligi investitsiya ishonchligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Murakkab va tez-tez o'zgaruvchi qonunlar investorlarning ishonchini pasaytiradi.

Yerga egalik huquqi. Yerga egalikning aniqligi va xavfsizligi — xorijiy investorlar uchun uzoq muddatli rejalar tuzishda muhim kafolat hisoblanadi. Mulk huquqining himoyalanganligi sarmoya kiritish uchun zaruriy shartlardan biridir.

Suv resurslari. Sug'orish tizimlarining texnik holati va suv ta'minotining barqarorligi ayniqsa qurg'oqchil mintaqalarda qishloq xo'jaligi faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Suv ta'minotining ishonchligi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi.

Infratuzilma. Transport, energetika va aloqa infratuzilmasining rivojlanganligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotlarni ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazib berishni yengillashtiradi.

Soliq tizimi. Investitsiyalar bo'yicha soliqlarning maqbul darajada bo'lishi investorlar uchun muhim hisoblanadi. Yuqori soliq stavkalari sarmoyaning rentabelligini pasaytiradi va investorlarni chekinishga majbur qiladi.

Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi investorlarning foyda olish umidlarini oshiradi.

Bozorga kirish imkoniyatlari. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga erkin chiqarish imkoniyati investitsiya barqarorligini belgilovchi asosiy omillardandir.



Malakali ishchi kuchi. Sohada bilimli va tajribali ishchi kuchining mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Texnologik infratuzilma. Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan keng foydalanish hosildorlikni oshirish va mahsulot sifati yaxshilanishiga olib keladi.

Atrof-muhit barqarorligi. Sarmoyaning ekologik muvofiqligi — ya'ni atrof-muhitga zarar yetkazmasligi va barqaror qishloq xo'jaligi tamoyillariga mosligi — bugungi kunda investorlar uchun asosiy mezonlardan biriga aylangan.

Shu bois, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakatlar ushbu mezonlarga mos kelishi va investitsion muhitni uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Xorijiy investorlar uchun qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni yo'lga qo'ygan dastlabki 14 davlat¹

№	Davlat nomi	Gektar	Ulushi %
1.	Avstraliya	4.946.381	14,20%
2.	Sudan	3.454.429	9,90%
3.	Rossiya	3.041.213	8,70%
4.	Braziliya	2.936.854	8,40%
5.	Fillipin	1.750.000	5,00%
6.	Mozambik	1.583.149	4,50%
7.	Janubiy Sudan	1.425.300	4,10%
8.	Tanzaniya	1.084.076	3,10%
9.	Efiyopiya	1.042.600	3,00%
10.	Ukraina	997.600	2,90%
11.	Argentina	961.552	2,80%
12.	Uganda	869.410	2,50%
13.	Syerra-Leone	705.450	2,00%
14.	Marokash	700.000	2,00%
15.	Boshqa davlatlar	9.306.930	26,70%
Jami 34.804.944			100,00%

2020–2024 yillarda dunyoda qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar²

Yil	Davlatlar nomi	Investitsiya hajmi (mlrd. AQSh dollari)
2020	Global	1,350
2021	Global	1,350
2022	Global	1,350
2023	Global	1,350
2024	Global	1,350

2020–2024 yillarda qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha eng yirik ulushga ega davlatlar³

Davlat nomi	Investitsiya hajmi (mlrd. AQSh dollari)	Izoh
Indoneziya	888 million	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik investitsiya
Braziliya	635 million	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik investitsiya
AQSh	621 million	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik investitsiya
Xitoy	1.71 billion	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik chiqimlar
Norvegiya	567 million	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik chiqimlar
AQSh	496 million	2018–2022 yillarda o'rtacha yillik chiqimlar

¹ GRAIN | GRAIN releases data set with over 400 global land grabs

² Ushbu ma'lumotlar FAO (BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) va fDi Markets bazasidan olingan rasmiy statistikaga asoslanadi.

³ Ushbu ma'lumotlar FAO tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistikaga asoslanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mezonlari keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy investorlar uchun eng muhim mezonlar qatoriga siyosiy va huquqiy barqarorlik, infratuzilmaning rivojlanganligi, iqlim sharoitining qulayligi, iqtisodiy samaradorlik va bozordagi talab darajasi kiradi. Ushbu omillar mamlakatning investitsion jozibadorligini belgilab berib, qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, muvaffaqiyatli xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki innovatsiyalarni kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilish imkonini beradi. Shu bois, qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya siyosatini shakllantirishda xorijiy mezonlarni hisobga olish va ularga mos strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan siyosiy muhit yaratish, qonunchilik va tartib-taomillarni soddalashtirish, shuningdek, investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Qishloq hududlarida transport, suv ta'minoti, energiya va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan qulay muhitni shakllantirish kerak.

Iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan investitsion xavflarni kamaytirish maqsadida moslashuvchan agrar siyosat ishlab chiqilishi va ekologik xavfsizlik choralari kuchaytirilishi maqsadga muvofiq.

Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini rivojlantirish orqali xorijiy investorlar uchun jozibador sharoitlarni kengaytirish lozim.

Xorijiy investitsiyalarning muvaffaqiyatli tajribalarini o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan siyosiy yondashuvlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Investitsiya muhitini muntazam tahlil qilish va xorijiy investorlarning fikr-mulohazalarini hisobga olish orqali mavjud tizimni doimiy ravishda takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mishkin, F. S., & Shapiro, J. S. (2007). Political Stability and Foreign Investment. *Journal of International Economics*, 72(2), 389-409. (USA)
2. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). *Economic Development* (12th ed.). Pearson Education. (USA)
3. Khan, M., et al. (2018). Climate Risks and Agricultural Investment: Implications for Emerging Economies. *Agricultural Economics Review*, 40(1), 75-90. (Pakistan)
4. Jenkins, R., & Thomas, L. (2019). Foreign Direct Investment and Agricultural Innovation. *World Development*, 123, 104603. (UK)
5. Xudoyberganov, S., & Hamroqulov, O. (2021). Legal Reforms and Investment Climate in Uzbekistan's Agricultural Sector. *Central Asian Journal of Economics*, 7(2), 55-68. (Uzbekistan)
6. World Bank. (2020). *Agricultural Investment and Policy Reform in Developing Countries*. Washington, DC: World Bank Publications. (International)
7. stat.uz
8. [GRAIN | GRAIN releases data set with over 400 global land grabs](#)
9. <https://www.fao.org>
10. <https://www.fao.org/home/en>
11. A. Juraev, S. Abdullaev, M. Aramov, & J. Abdulhamidov (2022). Vodorod ishlab chiqarish: Elektroliz. Science and innovation, 1 (A8), 360-365. doi: 10.5281/zenodo.7391172



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
